

MINTAQADA TASHQI MEHNAT MIGRATSIYASI OQIMLARINI TA'MINLASH YO'LLARI

Zakirov Mir Timur Zakir o'g'li

Urganch Ranch-texnologiya universiteti
"Iqtisodiyot" kafedrası o'qituvchisi

Annotatsiya

Ushbu maqolada mintaqada tashqi mehnat migratsiyasi oqimlarini ta'minlash xususiyatlari, mavjud imkoniyatlari va amalga oshirish masalalari yoritilgan. Shuningdek, mintaqada tashqi mehnat migratsiyasi oqimlarini ta'minlash yuzasidan xulosa va takliflar ishlab chiqilgan.

Kalit so'zlar: mintaq, mehnat, tashqi mehnat, migratsiya, oqim, omil.

Аннотация

В статье рассматриваются особенности, существующие возможности и проблемы реализации обеспечения потоков внешней трудовой миграции в регионе. Разработаны выводы и предложения по обеспечению потоков внешней трудовой миграции в регионе.

Ключевые слова: регион, рабочая сила, внешняя трудовая миграция, миграция, поток, фактор.

Abstract

This article discusses the features, existing opportunities and implementation issues of ensuring external labor migration flows in the region. Also, conclusions and proposals are developed on ensuring external labor migration flows in the region.

Keywords: region, labor, external labor, migration, flow, factor.

KIRISH

Globalashuv sharoitida mehnat resurslarining xalqaro harakati iqtisodiy rivojlanishning ajralmas qismiga aylandi. Bu borada O'zbekistonda tegishli me'yoriy-huquqiy hujjatlar qabul qilingan. Xususan, mehnat migratsiyasi jarayonlarini boshqarish tizimining samaradorligini oshirish, chet elda mehnat faoliyatini amalga oshirish istagida bo'lgan fuqarolarga qulay shart-sharoitlarni yaratish, mehnat migratsiyasidan qaytib kelgan shaxslarni reintegratsiya qilish, shu jumladan ularning bandligini ta'minlash, kasbiy malakasini oshirish va tadbirkorlik tashabbuslarini rag'batlantirish maqsadida O'zbekiston Respublikasi Prezidentining PF-59-son Farmoni [1] qabul qilingan. Unga asosan, demografik o'sish sur'atlari yuqori bo'lgan hamda ichki bandlik imkoniyatlari yetarli emas mintaqalarda tashqi mehnat migratsiyasi ortiqcha ishchi kuchini tashqi bozorga yo'naltirish, aholi farovonligini oshirish, pul o'tkazmalari hisobidan iqtisodiy barqarorlikni ta'minlash va kadrlar malakasini oshirish kabi omillarni kuchaytiradi. Biroq, samarali migratsiya oqimlarini tashkil qilish uchun huquqiy, iqtisodiy, tashkiliy va axborot infratuzilmasini puxta yo'lga qo'yish zarur. Bu boradagi yo'nalishlar tashqi mehnat migratsiyasini tizimli, xavfsiz, iqtisodiy jihatdan foydali va boshqariladigan shaklda yo'lga qo'yish uchun zarur bo'lgan keng qamrovli chora-tadbirlar majmuasini aks ettiradi.

ADABIYOTLAR SHARHI

Mintaqada tashqi mehnat migratsiyasi oqimlarini ta'minlash yuzasidan turli tadqiqotlar olib borilgan. Xususan, ayrim tadqiqotlarda Yangi O'zbekistonda Taraqqiyot strategiyasi doirasida amalga oshirilayotgan keng ko'lamli iqtisodiy islohotlar, ularning amaliy natijalaridan kelib chiqqan holda davlatning mehnat migratsiyasi siyosatida tub o'zgartirishlar kiritilishi lozimligi asoslangan [2].

Yana bir tadqiqotlarda kelajakdagi migratsiya sohasi uchun asosiy hujjatlar sifatida mehnat migratsiyasi bo'yicha davlat siyosati konsepsiyasi va strategiyasini ishlab chiqish taklif qilinadi. Ya'ni, migratsiya sohasidagi islohotlar yo'nalishlari, jumladan, mehnat migratsiyasining uyushgan shakllarini yaratish, xalqaro hamkorlikni kengaytirish, turli milliy agentliklarning vakolatlarini kengaytirish, statistika to'plash va ma'lumotlarni tahlil qilish tizimini takomillashtirish hamda migratsiya sohasida ilmiy tadqiqotlar o'tkazish yo'llari bayon etiladi [3].

Tadqiqotlarda zamonaviy dunyoning eng muhim masalalaridan biri bo'lgan tashqi mehnat migratsiyasining huquqiy jihatlari tadqiq qilinadi. Ya'ni, mehnat migratsiyasi jarayonlarini tartibga soluvchi normativ-huquqiy baza o'rganilgan [4].

Yana boshqa xil tadqiqotlarda esa davlatning zamonaviy jamiyatda kuzatilayotgan migratsiyani tartibga soluvchi institut ekanligi talqin qilinadi. Xususan, migratsiyani ushbu komponentlarga ta'sir ko'rsatadigan hodisa sifatida ko'rib chiqsak, migratsiya ijtimoiy-iqtisodiy hodisa sifatida davlat tomonidan muvofiqlashtirish va tartibga solishga bo'ysunadi [5].

Yana boshqa bir tadqiqotlarga asosan, tadbirkorlar xizmat ko'rsatish sohasidagi ishchi kuchi yetishmasligini qoplash uchun immigrantlardan foydalanadi. Bu borada migrantlar sabablari uydagi muammolar bilan emas, ya'ni mehnat bozori talablari va kapital ehtiyojlari o'rtasidagi ziddiyat bilan bog'liq bo'ladi [6].

Tadqiqotlardan shu ko'rinadiki, jamiyatda migrantlarning ijobiy tavsifini yaratishda ommaviy axborot vositalari va ijtimoiy tarmoqlar yetakchi rol o'ynaydi. Ular bevosita migratsiya afzalliklari haqida xabardorlikni oshirishga va ijtimoiy hamjihatlikni saqlashga imkon beradi [7].

Yana bir tadqiqotda O'zbekistonda xorijiy mehnat migratsiyasi siyosatining amalga oshirish masalalari ilgari suriladi. Ya'ni, O'zbekistonda xorijiy mehnat migratsiyasi siyosati xalqaro hamkorlikni rivojlantirish, vatandoshlar va xorijdagi o'zbek diasporasi bilan aloqalarni mustahkamlash, xorijiy tillarni professional tayyorlash va o'qitish, moliyaviy va ijtimoiy qo'llab-quvvatlash, mehnat migratsiyasidan qaytgan kishilarni integratsiyalash va tadbirkorlik tashabbuslarini rag'batlantirish yo'nalishlariga asoslanadi [8].

Tadqiqotlarda ijtimoiy-madaniy sharoitni o'rganish orqali migratsiyaning "muvaffaqiyati" darajasi va migrantlarning jamiyatga qo'shilish qobiliyati baholanadi. Ya'ni, mehnat resurslariga ega mamlakat sifatida O'zbekistonda migratsiya jarayonlarining o'zgarishiga rag'batlantiruvchi va cheklovchi omillar ta'sir ko'rsatadi [9].

Yana boshqa tadqiqotlarda rivojlangan mamlakatlar mintaqalarida migratsiya muammolari tadqiq qilinadi. Ya'ni, so'nggi yillarda rivojlangan mamlakatlarda

migratsiya muammosini hal qilishning zamonaviy yondashuvlari migratsiya hodisasining yetakchi tendensiyalarini asoslashga qaratiladi [10].

Boshqa manbalarda esa mehnat migratsiyasi o'rganilayotgan mintaqada migratsiyaning asosiy turi sifatida tavsiflanadi. Unga ko'ra, mintaqada mehnat migratsiyasini rivojlantirish bilan bog'liq asosiy muammolarni, uni prognozlash va davlat hamda mintaqaviy hokimiyat organlari tomonidan mehnat migratsiyasini boshqarishga asoslovchi yondashuvlar aniqlanadi [11].

METODOLOGIYA

Mazkur tadqiqot ishini amalga oshirishda ilmiy tadqiqot metodologiyasida keng qo'llaniladigan mavjud usullardan foydalanildi. Xususan, ushbu tadqiqotda mintaqada tashqi mehnat migratsiyasi oqimlarini ta'minlashda kuzatish, mantiqiy fikrlash, tarkibiy tahlil, qiyosiy tahlil, ilmiy abstraksiyalash, ma'lumotni guruhlash, analiz va sintez, induksiya va deduksiya usullaridan samarali foydalanildi.

TAHLIL VA NATIJALAR

Mintaqa doirasida tashqi mehnat migratsiyasini boshqarish asosiy yo'llari, mexanizmlari va taklif etilayotgan chora-tadbirlariga asoslanadi. Bu borada mintaqada mehnat migratsiyasi oqimlarining shakllanishiga quyidagi omillar ta'sir qiladi:

- demografik omillar. Aholi sonining tez o'sishi va mehnatga layoqatli yoshlar ulushining yuqoriligi ish o'rinlariga bo'lgan talabni oshiradi. Ko'plab mintaqalarda ichki bozor ushbu ehtiyojni to'liq qoplay olmagani sababli tashqi mehnat migratsiyasi tabiiy yechim sifatida yuzaga keladi.

- iqtisodiy omillar. U o'z ichiga ish haqi farqlari, bandlik darajasi, ishlab chiqarishning rivojlanish sur'atlari va iqtisodiy integratsiya darajasini oladi. Ayniqsa, xorijiy davlatlardagi yuqori ish haqi takliflari migratsiya oqimini rag'batlantiradi.

- ijtimoiy omillar. Ijtimoiy tarmoqlar, qarindoshlar va tanishlar orqali shakllanadigan migratsiya zanjirlari mehnat migrantlarini tashqi bozorga chiqishida eng muhim omillardan biri bo'lib hisoblanadi.

- siyosiy va huquqiy omillar. Vizalar rejimi, mehnat shartnomalarini tartibga soluvchi bitimlar, migrantlar huquqlarini himoyalovchi qonunchilik hamda huquqiy ruxsatlar va tartibga solish darajasi migratsiya oqimining qonuniyligini belgilab beradi.

Tashqi mehnat migratsiyasi oqimlarini ta'minlashda davlat siyosati zarur bo'lib, bu quyidagi yo'nalishlarga asoslanadi:

- mehnat migratsiyasi bo'yicha milliy strategiya ishlab chiqish. Unga asosan, migratsiya jarayonini tasodifiy emas, ya'ni strategik yondashuv asosida boshqarish zarurligini asoslaydi. Bunda ustuvor qabul qiluvchi mamlakatlar ro'yxati, talab eng yuqori bo'lgan kasblar ro'yxati, migrantlarni tayyorlashning institutsional mexanizmlari va ijtimoiy himoya standartlari kabi yo'nalishlar muhim yo'nalish sifatida belgilanadi.

- xorijiy davlatlar bilan ikki tomonlama bitimlar tuzish. Bu mehnat migratsiyasini tartibga soluvchi hukumatlararo kelishuvlar shaklida kvotalar belgilashni, vaqtinchalik ish dasturlarini, migrantlar ijtimoiy sug'urtasini, pensiya huquqini tan olishni va ruxsatnomalarni soddalashtirish imkonini yaratadi. Mazkur

bitimlar migratsiya jarayonini xavfsiz, barqaror va qonuniy qiladi.

- tashqi mehnat migratsiyasini boshqaruvchi maxsus agentliklar faoliyatini kuchaytirish. Bu yoʻnalish xorijda ish topish boʻyicha rasmiy kanallarni yaratish, mehnat shartnomalarini tekshirish, migrantlarni hujjatlashtirish, huquqiy maslahat berish va chuqur monitoring va statistik tahlil kabi vazifalarni bajaradi.

- migrantlar huquqlarini himoya qilish tizimi. Bu borada tashqi mehnat migratsiyasi oqimlarini qonuniy taʼminlash uchun konsullik himoyasini kuchaytirish, migrantlar bilan ishlash markazlari ochish, shaxsiy xavfsizlik, mehnat munosabatlari, tibbiy sugʻurta boʻyicha huquqiy yordam kabilar muhim masala boʻlib qaraladi.

Fikrimizcha, tashqi mehnat migratsiyasini tashkil etish quyidagi tashkiliy yoʻnalishlarga asoslanadi:

- mehnat migrantlarini tayyorlash markazlarini tashkil qilish. Bunday markazlar til oʻrgatish, kasbiy malaka berish, huquqiy koʻnikmalarni shakllantirish va psixologik tayyorgarlik koʻrish kabi xizmatlarni taqdim etadi. Unga asosan, tayyor holda yuborilgan migrantlar xorijiy mehnat bozorida tezroq moslashadi.

- raqamlashtirilgan migratsiya boshqaruvi. Bu elektron platformalar shaklida ish oʻrinlari reyestri, xorijiy ish beruvchilar maʼlumotlar bazasi, vizalar monitoringi va migrantlarning onlayn roʻyxati kabi imkoniyatlarni yaratadi. Unga asosan, raqamlashtirish korrupsiya va vositachilikni kamaytiradi.

- mehnat agentliklari faoliyatini tartibga solish. Unga asosan, xususiy agentliklar davlat tomonidan qatʼiy litsenziyalanadi, yaʼni, uning faoliyatida shaffof toʻlovlar, firibgarlikdan himoya qilish va masʼuliyat mexanizmlari joriy etiladi.

- migrantlarni joʻnatishdan oldingi kompleks tayyorlovni amalga oshirish. Bu jarayon xorijiy davlatdagi hayot tarzi, madaniyat, qonunchilik haqida maʼlumot berish, mehnat shartnomasi boʻyicha treninglar, sogʻliqni tekshirish va moliyaviy savodxonlik boʻyicha darslar kabi yoʻnalishlarni oʻz ichiga oladi.

Shu bilan birgalikda, tashqi mehnat migratsiyasi oqimlarini qoʻllab-quvvatlash quyidagi iqtisodiy yoʻnalishlarga asoslanadi:

- pul oʻtkazmalari oqimini institutsional qoʻllash. Bu migrantlarning yuborayotgan pul mablagʻlari orqali xalqaro pul oʻtkazmalari tizimlari, bank xizmatlarini diversifikatsiya qilish, imtiyozli valyuta ayirboshlash va investitsion loyihalarga yoʻnaltirilgan dasturlar orqali yanada samarali boʻladi.

- migrantlar uchun moliyaviy xizmatlar. Bu zamonaviy mobil toʻlov tizimlari, migrantlar uchun maxsus depozit dasturlari, jamgʻarma hisobvaraqlari va imtiyozli kreditlarga asoslanadi. Bu esa migratsiyani iqtisodiy jihatdan barqaror qiladi.

- kasbiy tayyorgarlikning iqtisodiy ragʻbatlari. Buning uchun malaka olish jarayonini davlat tomonidan subsidiyalash bevosita standartlarga mos kasblar tayyorlash hamda tayyorlangan migrantlarning xorijda yuqori ish haqi olishini taʼminlaydi.

- kichik biznes uchun migrantlar resurslaridan foydalanish. Bu xorijdan qaytgan migrantlar sifatida sarmoya, yangi koʻnikmalar va boshqaruv tajribasi tadqiq qilinadi. Davlat esa ularni biznes ochishga ragʻbatlantirsa-da, tashqi migratsiya ichki iqtisodiyotga ijobiy taʼsir koʻrsatadi.

Shulardan kelib chiqib, mintaqada tashqi mehnat migratsiyasi oqimlarini ta'minlash quyidagi yo'nalishlarga asoslanadi (1-jadval).

1-jadval.

Mintaqada tashqi mehnat migratsiyasi oqimlarini ta'minlash yo'llari¹

Yo'nalish	Mazmuni	Asosiy amalga oshirish choralar
Huquqiy asoslarni mustahkamlash	Mehnat migratsiyasini tartibga soluvchi qonunchilikni takomillashtirish va migrantlar huquqlarini himoya qilish	- xorijiy davlatlar bilan ikki tomonlama bitimlar tuzish; - vaqtinchalik mehnat dasturlari bo'yicha kvotalar joriy etish; - migrantlarning huquqiy kafolatlarini kuchaytirish
Davlat boshqaruvi va institutlar faoliyatini rivojlantirish	Migratsiya jarayonini markazlashgan tartibda boshqarish va rasmiy mexanizmlarni kuchaytirish	- mehnat migratsiyasi agentliklari faoliyatini kengaytirish; - konsullik xizmatlarini kuchaytirish; - migratsiya monitoringi va statistik tahlil tizimini yaratish
Tashkiliy yo'llar	Migrantlarni tayyorlash hamda jo'natish va qabul qilish jarayonlarini tizimlashtirish	- migrantlarni tayyorlash (til, kasb va huquqiy o'quvlar) markazlarini yaratish; - hujjatlashtirish jarayonlarini soddalashtirish; - operator va agentliklar faoliyatini qat'iy nazorat qilish
Iqtisodiy qo'llab-quvvatlash	Migrantlar va ularning oilalarini iqtisodiy rag'batlantirish va pul o'tkazmalar samaradorligini oshirish	- imtiyozli kreditlar va depozit dasturlarini amalga oshirish; - xalqaro pul o'tkazmalari tizimlarini rivojlantirish; - kasbiy malakalarni subsidiyalash
Raqamlashtirish va axborot tizimlari	Migratsiya jarayonlarini shaffof qilish va axborot almashuvini tezlashtirish	- raqamli ro'yxatga olish tizimini amalga oshirish; - xorijiy ish beruvchilar ma'lumotlar bazasini yaratish; - mobil ilovalar orqali migrantlarni qo'llab-quvvatlash
Xavfsizlik va ijtimoiy himoya	Noqonuniy migratsiya, firibgarlik, ekspluatatsiyaga qarshi kurash va migrantlar xavfsizligini ta'minlash	- soxta agentliklarni aniqlash va jazolash; - migrantlar uchun ijtimoiy sug'urta tizimini kengaytirish; - favqulodda holatlarda konsullik yordamiga tezkor murojaat qilish tizimini amalga oshirish
Mintaqaviy va xalqaro hamkorlik	Qo'shni davlatlar va xalqaro tashkilotlar bilan hamkorlikda migratsiya jarayonini boshqarish	- malaka standartlarini o'zaro tan olish; - mehnat bozoridagi talab bo'yicha qo'shma tadqiqotlarni amalga oshirish; - mintaqaviy maslahat kengashlari tashkil qilish
Ijtimoiy-psixologik tayyorlov	Migrantlarning psixologik barqarorligi va moslashuvchanligini oshirish	- madaniyatlararo moslashuv treninglarini amalga oshirish; - stressga chidamlilik bo'yicha seminarlar o'tkazish; - oila a'zolari uchun informatsion qo'llanmalarni chop qilish
Bandlikni prognozlash va mehnat bozori tahlili	Xorijiy davlatlar talabiga mos kadr tayyorlash	- kasblar kesimida talab prognozini amalga oshirish; - ishchi kuchi eksportini rejalashtirish - mehnat bozori monitoring markazlari yaratish

¹ Muallif ishlanmasi

1-jadvalga asosan, mintaqada tashqi mehnat migratsiyasi oqimlarini samarali tashkil etish ko'p qirrali siyosiy, iqtisodiy, huquqiy va tashkiliy choralarni talab qiladi. Bu borada keltirilgan yo'nalishlar ushbu jarayonni kompleks yondashuv asosida boshqarishning asosiy tamoyillari sifatida ko'rib chiqiladi.

Birinchi navbatda, huquqiy asoslarni mustahkamlash tashqi mehnat migratsiyasining barqaror va qonuniy kechishini ta'minlashning poydevori bo'lib hisoblanadi. Ikki tomonlama bitimlar, kvotalar va migrantlar huquqlariga oid kafolatlarning kuchaytirilishi xorijda ishlash jarayonini rasmiy va himoyalangan shaklga keltiradi. Bu esa noqonuniy kanallar, ekspluatatsiya va xavf-xatarlarning oldini oladi.

Davlat boshqaruvi va institutlar faoliyatini rivojlantirish esa migratsiya jarayonini markazlashgan holda tartibga solish imkonini beradi. Mehnat migratsiyasi agentliklarining samarali ishlashi, konsullik himoyasining kuchaytirilishi hamda statistika va monitoring tizimlarining joriy etilishi tashqi mehnat bozorida jarayonlarni aniq prognozlash va boshqarishga xizmat qiladi.

Migratsiya oqimlarini to'g'ri shakllantirish uchun tashkiliy yo'llar muhim o'rin tutadi. Ushbu yo'nalish doirasida migrantlarni jo'natishdan oldin kasbiy, til va huquqiy tayyorlovlarni yo'lga qo'yish, hujjatlashtirish tartibini soddalashtirish hamda agentliklar faoliyatini nazorat qilish kabi chora-tadbirlar migratsiyaning sifat darajasini oshiradi.

Bundan tashqari, migratsiya jarayonining iqtisodiy jihatlari ham bevosita ahamiyatga ega. Iqtisodiy qo'llab-quvvatlash choralarning joriy etilishi, ya'ni imtiyozli kreditlar, xalqaro pul o'tkazmalarini qulaylashtirish va kasbiy tayyorgarlikni subsidiyalash bevosita migrantlar va ularning oilalari uchun iqtisodiy barqarorlikni ta'minlaydi. Bu esa ushbu jarayonning ijtimoiy-iqtisodiy samarasini oshiradi.

Zamonaviy davrda raqamlashtirish va axborot tizimlari migratsiyani boshqarishning eng muhim vositalaridan biriga aylandi. Elektron ro'yxatga olish tizimlari, xorijiy ish beruvchilar bo'yicha raqamli bazalar hamda mobil ilovalar orqali migrantlarga ko'rsatiladigan xizmatlar jarayonlarni shaffof, tezkor va xavfsiz qiladi.

Migrantlar xavfsizligini ta'minlash ham alohida e'tiborni talab qiladi. Xavfsizlik va ijtimoiy himoya yo'nalishidagi choralarning kuchaytirilishi, ya'ni soxta agentliklarga qarshi kurashish, ijtimoiy sug'urtani kengaytirish, favqulodda vaziyatlarda tezkor konsullik yordamini yo'lga qo'yish mehnat migrantlari uchun muhojirlikning barqaror va kafolatlangan muhitini yaratadi.

Yuqoridagilarga qo'shimcha ravishda, mintaqaviy va xalqaro hamkorlik tashqi mehnat migratsiyasi oqimlarini tartibli boshqarishda muhim rol o'ynaydi. Qo'shni davlatlar bilan birgalikda ishlab chiqilgan malaka standartlari, qo'shma tadqiqotlar va maslahat kengashlari migratsiya jarayonida barqarorlikni ta'minlaydi.

Migrantlarning xorijda samarali faoliyat yuritishi ko'p jihatdan ularning psixologik tayyorgarligiga ham bog'liq bo'ladi. Shu sababli, ijtimoiy-psixologik tayyorlov choralari sifatida madaniyatlararo moslashuv, stressga qarshi treninglar va oilalar uchun ma'lumotnoma materiallar bevosita xavfsiz migratsiya jarayonining ajralmas qismi bo'lib hisoblanadi.

Oxirgi yo‘nalish sifatida bandlikni prognozlash va mehnat bozori tahlili tashqi mehnat bozoridagi talabni aniq baholash, muayyan kasblar bo‘yicha mutaxassislarni tayyorlash va ishchi kuchini rejali ravishda yuborish imkonini beradi. Bu esa mintaqaning mehnat resurslarini to‘g‘ri boshqarish va migratsiya oqimlarini iqtisodiy jihatdan samarali yo‘naltirishga xizmat qiladi.

Shulardan kelib chiqib, tashqi mehnat migratsiyasi xavfsizligini ta‘minlash yo‘llari quyidagilardan iborat bo‘ladi:

1. Qonuniy migratsiyani kuchaytirish. Bu borada noqonuniy kanallar xavfsizlik, ekspluatatsiya va jinoyatchilikka olib keladi. Shuning uchun vizalar jarayonini soddalashtirish, ruxsatnomalarni tezlashtirilgan tartibda berish va ruxsatsiz vositachilarni aniqlash lozim.

2. Migrantlarni himoya qiluvchi xalqaro mexanizmlar. Bu borada Xalqaro mehnat tashkiloti konvensiyalari, 1990-yilda qabul qilingan migrantlar huquqlari konvensiyasi va mehnat ekspluatatsiyasiga qarshi kurash tizimi hisobga olinadi. Ushbu mexanizmlar asosida migrantlarga zarur kafolatlar beriladi.

3. Konsullik xizmatlari faoliyatini kengaytirish. Bu holatda konsulliklar huquqiy himoya qilish, mehnat nizolarini hal etish, majburiy mehnat holatlaridan chiqarib olish va deportatsiya xavfini kamaytirish kabi vazifalarni bajaradi.

4. Axborot xavfsizligi. Unga asosan, migratsiya bo‘yicha noto‘g‘ri ma‘lumotlar ko‘pgina muammolarga olib keladi. Shu sababli, rasmiy portal orqali doimiy xabarlar berish, soxta agentliklar ro‘yxatini e‘lon qilish va xavfsiz yo‘riqnomalar tarqatish zarur.

XULOSA VA TAKLIFLAR

Mintaqada tashqi mehnat migratsiyasi oqimlarini ta‘minlash murakkab va ko‘p bosqichli jarayon sifatida iqtisodiy, siyosiy, ijtimoiy, huquqiy va tashkiliy mexanizmlarning uyg‘un ishlashini talab etadi. Qonuniy va xavfsiz migratsiya kanallarini yaratish, malakali kadrlarni tayyorlash, xorijiy davlatlar bilan hamkorlikni mustahkamlash, migrantlarning huquqlarini himoya qilish va iqtisodiy rag‘batlarni kengaytirish bevosita ushbu jarayonning eng muhim yo‘llari bo‘lib xizmat qiladi. To‘g‘ri yo‘lga qo‘yilgan migratsiya siyosati mintaqadagi ishchi kuchi bosimini kamaytiradi hamda iqtisodiy rivojlanish, xalqaro hamkorlik va aholi farovonligini oshirishga xizmat qiladi. Ulardan tashqari, mintaqaviy hamkorlik asosida tashqi mehnat migratsiyasi oqimlarini rivojlantirish turli yo‘nalishlarga asoslanadi.

Ushbu xulosalardan kelib chiqib, mintaqada tashqi mehnat migratsiyasi oqimlarini samarali ta‘minlash uchun quyidagi yo‘nalishlardagi chora-tadbirlarni amalga oshirish lozim, deb hisoblaymiz:

1. Qo‘shni davlatlar bilan migratsiya masalalarida hamkorlik qilish, umumiy ma‘lumotlar bazasi yaratish, chegaradan o‘tish tartibini soddalashtirish va malakalar standarti bo‘yicha o‘zaro tan olish kabi mintaqalararo kelishuvlarni amalga oshirish.

2. Integratsiya platformalarida ishtirok etish orqali Yevrosiyo iqtisodiy ittifoqi, Osiyo Taraqqiyot Banki loyihalari va Markaziy Osiyo mintaqaviy hamkorlik dasturlarini qo‘llab-quvvatlash.

3. Migratsiya bo'yicha mintaqaviy tadqiqotlar va monitoring qilish orqali statistik tahlillar va prognozlar asosida migratsiya oqimlarini boshqarish.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR RO'YXATI

1. O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2024-yil 4-apreldagi PF-59-son "Mehnat migratsiyasi jarayonlarini takomillashtirish hamda xorijda vaqtincha mehnat faoliyatini amalga oshirayotgan shaxslarni qo'llab-quvvatlashga doir qo'shimcha chora-tadbirlar to'g'risida"gi Farmoni <https://lex.uz/ru/docs/6868721>

2. Muxammedov M.M., Arabov N.U. Tashqi mehnat migratsiyasi: muammolar va yechimlar. // Journal of marketing, business and management (JMBM), 2022, Volume1, Issue4 (June) ISSN: 2181-3000. - 43 b.

3. Исакулов Ш.Н. Проблемы и возможности эффективного регулирования внешней трудовой миграции в Республике Узбекистан. // Народонаселение, 2021, Т.24, №4.- с. 161-174. DOI: 10.19181/ population.2021.24.4.13.

4. Рахманов Ш.Н. Правовое регулирование процессов трудовой миграции в Республике Узбекистан. // Теневая экономика, 2022, Т.6, №3. - с. 145-156. – DOI 10.18334/tek.6.3.116140

5. Рыбаковский Л.Л. Миграция населения: учебное пособие для вузов. - М.: Издательство Юрайт. 2023. - 39 с.

6. Абылкаликов С.И., Винник М.В. Экономические теории миграции: рабочая сила и рынок труда. // Бизнес. Общество. Власт, 2012, №12. - с. 14.

7. Гауэр С.В. Миграция как глобальная проблема. Case-studies: Германия. // Молодой ученый, 2023, №13, (460). - с. 123.

8. Kadirova Z.A., Gazieva S.S. Regulation of labor migration processes in Uzbekistan. // Journal of marketing, business and management (JMBM), 2-23, Volume1, Issue10 (January). - p. 41. ISSN: 2181-3000/SJIF FACTOR: 4.28

9. Bondarenko K.A. Labor Migration from Uzbekistan: a Family and Community Promoted Big Bang. // Reg. Res. Russ. 11, 273-284 (2021). <https://doi.org/10.1134/S2079970521020039>

10. Dasmurodov O. (2021). O'zbekistonda tashqi va ichki mehnat migratsiyasi holati. // Amerika siyosiy fanlar huquqi va kriminologiya jurnali, 3 (06). - 41 b. <https://doi.org/10.37547/tajpslc/Volume03Issue06-06>

11. Potudanskaya V. F., Borovskikh N.V., Kipervar E.A. Labor Migration in the Region: Assessment, Forecasting, Approaches to Management. // The Journal of Social Sciences Research, 3, 2018. - p. 256-264.



Marketing

ilmiy, amaliy va ommabop jurnali

Muharrir:	Xakimov Ziyodulla Axmadovich
Ingliz tili muharriri:	Tursunov Boburjon Ortiqmirzayevich
Rus tili muharriri:	Kaxramonov Xurshidjon Shuxrat o'g'li
Musahhih:	Karimova Shirin Zoxid qizi
Sahifalovchi va dizaynerlar:	Sadikov Shoxrux Shuxratovich Abidjonov Nodirbek Odijon o'g'li

2025-yil, dekabr, 12-son

© Materiallar ko'chirib bosilganda "Marketing" ilmiy, amaliy va ommabop jurnali manba sifatida ko'rsatilishi shart. Jurnalda bosilgan material va reklamalardagi dalillarning aniqligiga mualliflar mas'ul. Tahririyat fikri har vaqt ham mualliflar fikriga mos kelavermasligi mumkin. Tahririyatga yuborilgan materiallar qaytarilmaydi.

Mazkur jurnalda maqolalar chop etish uchun quyidagi havolalarga murojaat qilish mumkin. Ilmiy maqola, ommabop maqola, reklama, hikoya va boshqa ilmiy-ijodiy materiallar yuborishingiz mumkin.

Materiallar va reklamalar pullik asosda chop etiladi.

Elektron pochta: info@marketingjournal.uz
Bot: [@marketinjournalbot](https://t.me/@marketinjournalbot)
Tel.: +998977838464, +998939266610
Jurnalning rasmiy sayti: <https://marketingjournal.uz>

Marketing jurnali O'zbekiston Respublikasi Oliy ta'lim, fan va innovatsiyalar vazirligi huzuridagi **Oliy attestatsiya komissiyasi rayosatining 2024-yil 04-oktabrdagi 332/5 sonli qarori** bilan milliy ilmiy nashrlar ro'yxatiga kiritilgan



"Marketing" ilmiy, amaliy va ommabop jurnali 2024-yil 15-martdan O'zbekiston Respublikasi Prezidenti Administratsiyasi huzuridagi Axborot va ommaviy kommunikatsiyalar agentligi tomonidan **C-5669517** reyestr raqami tartibi bo'yicha ro'yxatdan o'tkazilgan. **Litsenziya raqami: №240874**



"Marketing" ilmiy, amaliy va ommabop jurnalining xalqaro darajasi: **9710**. ГОСТ 7.56-2002 "Seriya nashrlarning xalqaro standart raqamlanishi" davlatlararo standartlari talablari. **Berilgan ISSN tartib raqami: 3060-4621**